




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar doi

zenodo

OpenAIRE



+998335668868



<https://innoworld.net>

2025



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 5-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025



Volume 2 Issue 5 | 2025 |

+99894 5668868 | @Anvarbek_PhD

Page | 2

**VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN JINSIY ZO'RAVONLIK JAMIYAT
VIJDONIGA ZARBA****Maqsudaliyev Nurmuhammad**

Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti Yurisprudensiya
yo'nalishi 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik muammosi ijtimoiy psixologik va axloqiy jihatdan tahlil qilinadi. Oiladagi befarqlik jinsiy tarbiya borasidagi sukut va jamiyatdagi loqaytlik bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Maqolada bunday zo'ravonlikning og'ir ruhiy oqibatlari jabrlanuvchilarning ruhiy holatiga shuningdek jamiyatdagi axloqiy muhitga ko'rsatadigan salbiy ta'siri yoritilgan. Shuningdek muammoning oldini olish yo'llari sifatida ota-onalar ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalarining o'рни alohida ko'rsatib o'tilgan. Bu maqolaning maqsadi voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik hodisasini nazariy-huquqiy, psixologik va ijtimoiy jihatdan o'rganish, uning qoibatlarini aniqlash, hamda muammoni yengillashtirishga yo'naltirilgan takliflarni ishlab chiqishdir. Maqola yakunida bolalarni himoya qilish ma'suliyatini har bir insoning vijdoniy burchi sifatida baholaydi va jamiyatni jimlikdan ko'ra jasoratli bo'lishiga da'vat etadi.

KALIT SO'ZLAR. Voyaga yetmaganlar, jinsiy zo'ravonlik, bolalar huquqlari, psixologik zarba, jinsiy tarbiya, oilaviy befarqlik, ma'naviy qadriyatlar, jinoyat, ijtimoiy muammo, profilaktika, huquqiy himoya, axloqiy ma'suliyat bolalikni himoya qilish, zo'ravonlikka qarshi kurash, jamiyat vijdoni.

KIRISH. Har bir bola poklik mehr va umid timsolidir. U jamiyatning kelajagi millatning ma'naviy va axloqiy poydevoridir. Ammo afsuski bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan eng o'gir illatning biri voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik hodisasi bu poklik va begunohlikka qilingan xiyonatdir. Bu jinoyat nafaqat qonuniy jihatdan balki axloqiy va ma'naviy nuqtayi nazardan ham eng og'ir ko'rinishlaridan biridir. Zamonaviy axborot oqimi oilaviy e'tiborsizlik jinsiy tarbiya borasidagi sukut va jamiyatda ayrim hollarda kuzatilayotgan loqaytlik bu muammoning kengayishiga sabab bo'lmoqda. Afsuski ko'p hollarda bunday holatlar yashiriladi jabrlanuvchilarga ishonchsizlik bilan qaraladi bu esa jinoyatchilarga yana imkon eshigini ochadi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik bu shunchaki jinoyat emas balki jamiyatning ma'naviy sog'lomligiga qarshi qaratilgan tahdidir. Bu mavzu haqida jim qolish emas balki uni chuqur tahlil qilish sabablarga qarshi kurashish va kelajak avlodni himoya qilish har bir insoning vijdoniy burchidir. Ba'zan bu begunohlikni himoya qilish kerak bo'lgan jamiyatning o'zi unga zulm manbaiga aylanadi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik bu faqat jinoyat emas bu insoniylikning vijdoning axloqning sinovidir. Bunday jinoyatlar haqida jim turish uni yashirish jinoyatchiga imkon berish begunoh bolani esa yana og'riqqa mahkum etishdir.

Bunday zo'ravonlikka har bir oilaning maktabning butun jamiyatning vijdoniga tegishli masaladir. Bugun bu masala haqida gapirish qo'rquv emas balki ma'suliyatdir. Chunki jimlik zo'ravonlikning eng qudratli qurolidir. Har bir bola xavfsiz mehrli va hurmatli muhitda ulg'ayishga haqli. Shu boisdan bu mavzu chetlab o'tish emas balki uni chuqur tushunish sabablarga qarshi kurashish har bir ongli insoning burchidir.

Muammoning ildizlari. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlikning kelib chiqish sabablari ko'p omillarga bog'liq. Ular orasida ijtimoiy, ruhiy, oilaviy, ma'naviy va texnologik omillarni alohida ta'kidlash mumkin.

Oiladagi nosog'lom muhit. Oilaviy muhit bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ammo afsuski ba'zi oilalarda zo'ravonlik, ichkilikbozlik, ota-onalar o'ratasidagi doimiy janjallar mehr va e'tibor yetishmasligi hukm suradi. Shunday oilalarda ulg'ayotgan bolalar o'zini himoyasiz yolg'iz his qiladi. Ota-ona tomonidan beparvorlik yoki e'tiborsizlik bolaning xavfli holatlarga tushib qolish ehtimolini oshiradi. Ayrim hollarda jinoyatchi o'sha bolaning yaqin qarindoshi yoki qo'shnisi bo'ladi bu esa muammoning eng og'ir jihatlaridan biridir.

Ma'naviy tanazzul va axloqiy qadriyatlarning susayishi. Bugungi kunda ayrim insonlarda axloqiy chegaralar yo'qolib bormoqda. Zo'ravonlik shafqatsizlik va buzuqlik ayrim madaniy kontentlarda normal holat sifatida ko'rsatilyapti. Natijada yoshlarning ongida bu illatga nisbatan befarqlik paydo bo'lmoqda. Televidenie filmlar internet seriallar yoki ijtimoiy tarmoqlarda axloqsizlikni targ'ib qiluvchi sahnalar yengil-elpi hazillar romantic deb niqoblangan zo'ravonlik holatlari bularning barchasi ong ostida salbiy ta'sir o'tkazadi. Shuningdek ayrim insonlarning jinsiy zo'ravonlikni odatiy istak yoki erkaklik belgisi deb qabul qilishi jamiyatda jiddiy ma'naviy inqiroz mavjudligidan dalolat beradi.

Axborot makonining nazoratsizligi. Internet bugungi kunda har bir bolaning hayotida ajralmas qismga aylangan. Ammo internet nazoratsiz qolsa u eng katta xavf manbaiga aylanadi. Ota-onalarning nazorat qilmasligi texnologiyadan bexabarligi esa bu xavfni yanada kuchaytiradi.

Ruhiy kasalliklar va psixologik buzilishlar. Ko'plab shunga o'xshash jinoyatchilar ruhiy va shaxsiy buzilishlarga ega bo'ladi. Ular o'z nafsini boshqara olmaydi empatiya va vijdon tuyg'usidan mahrum bo'ladi. Ayrim hollarda bolalikda o'zlari ham zo'ravonlik qurboni bo'lgan shaxslar keyinchalik o'sha jarohatni takrorlash holatiga tushadi. Demak bu jinoyatning ildizida faqat axloqsizlik emas balki psixologik kasallik ham bo'lishi mumkin. Shu bois bunday holatlarda ruhiy reabilitatsiya va davolanish jarayonlari ham zarurdir.

Jamiyatning befarqligi va muammoni yashirish odati. Afsuski bizning jamiyatda hanuz bu haqida gapirish uyat degan qarash mavjud. Shu sababli ko'plab jabrlanuvchilar va ularning oilalari jim qolishni afzal ko'radi. Bu esa

jinoyatchilarning qo'rquvsiz harakat qilishiga muammoning ildiz otishiga sabab bo'ladi. Jamiyatning befarqligi jinoyatchining quroli jimlik esa jinoyatni yashiruvchi pardadir. Bunday og'ir jinoyatlarning ildizi avvalo oilaviy muhitdagi nosog'lom holatlarda yotadi. Ba'zi oilalarda bolalarga e'tibor yetishmasligi ota-onaning mehrsizligi yoki ichkillikbozlik janjal zo'ravonlikning oddiy hol sifatida qabul qilinishi bolada himoyasizlik hissini kuchaytiradi. Bunday tashqari ayrim shaxslarning ruhiy kasalliklari past axloqiy madaniyat yoki jazolardan qo'rqmasligi natijasida ham bunday jinoyatlar sodir etilmoqda. Ko'p hollarda jinoyatchilar o'z qurbonlariga yaqin bo'lgan insonlar qarindosh qo'shni yoki tanishlar bo'lib chiqishi bu muammoning qanchalik ildiz otganini ko'rsatadi. Zo'ravonlikka qarshi kurashning eng katta dushmani bu jimlik va befarqlikdir. Har bir bu bizning oilada bo'lmaydi degan fikr aslida muammoning ildizini chuqurlashtiradi. Chunki jinoyatchi aynan jimlikdan foyda oladi.

Muammoning oqibatlari. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik bu jinoyatning eng dahshatli eng og'riqlisidir. Uning oqibatlari faqat jismoniy azob bilan cheklanmay inson ruhiyati kelajagi oilasi butun jamiyatning axloqiy muvozanatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Har bir bunday holat bu jamiyat vijdonidagi chuqur yaradir.

Ruhiy va psixologik travmalar. Eng avvalo zo'ravonlikka uchragan bola yoki o'smir og'ir psixologik jarohat oladi. U o'zini aybdor his qilishi o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotishi kattalarga nisbatan ishonchsizlik hissi paydo bo'lishi mumkin. Ko'plab hollarda bu bolalar uyqu buzilishi depressiya tashvish holatlari qo'rquv sindromlari kabi alomatlariga duch keladi. Ular o'z hayotini xavfli deb biladi atrofdagi odamlardan cho'chiydi va jamiyatdan ajralib qoladi. Ba'zi jabrlanuvchilar o'z boshidan kechirgan holatni unutmay yillar davomida o'zlarini qiynab yashashadi. Agar ulaga psixologik yordam ko'rsatilmasa bu holat o'z joniga qasd qilish agressiya yoki ruhiy kasallikka chalinish bilan yakunlanishi mumkin.

Jismoniy sog'liqqa zarar. Jinsiy zo'ravonlik natijasida voyaga yetmaganlar jismoniy jarohatlarga duch keladi. Ayrim hollarda bu holat doimiy sog'liq muammolarini keltirib chiqaradi najitada bola ulg'aygach bepushtlik sog'lom oilaviy hayot qurishdagi qiyinchiliklar bilan yuzlashadi. Eng og'ir hollarda zo'ravonlikdan so'ng bolalarning hayoti xavf ostida qoladi yoki ular bu azobga chiday olmay o'z joniga qasd qiladi. Bu oqibatlar shunchaki shaxsiy fojia emas ular millatning genofondiga jamiyatning kelajak sog'lom avlodiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy izolyatsiya va o'zini yakkalash. Zo'ravonlik qurboni bo'lgan bola ko'p hollarda o'z tengdoshlari o'qituvchilari va hatto oila a'zolari bilan muloqotdan chekinadi. U o'z boshidam o'tkan voqeani boshqalar bilib qolishidan qo'rqadi uyat yoki ayb hissi uni jamiyatdan uzoqlashtiradi. Natijada bola o'qishdan soviydi ijtimoiy faoliyatdan chetda qoladi va o'z

qobig'iga kirib yashay boshlaydi. Bu esa keyinchalik jamiyatdan uzilgan ruhiy jihatdan ezilgan passiv insonlarning ko'payishiga olib keladi.

Oila va jamiyatda ishonchning yo'qolishi. Jinsiy zo'ravonlik holarlari nafaqat jabrlanuvchini balki uning butun oilasini ruhiy iztirobga solidi. Ota-onalar o'zini aybdor his qiladi oilaviy muhitda tushkunlik paydo bo'ladi ba'zan esa oilaning buzilishiga ham sabab bo'ladi. Jamiyat miqyosida esa bu holatlar ishonch inqirozini keltirib chiqaradi odamlar bir-biriga ishonmay qo'yadi qo'shnichilik do'stlik ijtimoiy birdamlik qadriyat zaiflashadi. Bu esa jamiyatda psixologik beqarorlik umidsizlik va axloqiy tanazzul muhitini kuchaytiradi.

Ta'lim va rivojlanishdagi orqaga ketish. Ko'plab zo'ravonlik qurbonlari o'qishni tashlab ketadi yoki salohiyatini to'liq namoyon eta olmaydi. Bola o'zini boshqalarga oxshamagan deb his qiladi diqqatini jamlay olmaydi kelajak haqida orzu qilmay qo'yadi. Shu tariqa jamiyat bir qator iqtidorli mehnatsevar yoshlarni yo'qotadi. Agar har bir bunday bola o'z hayotida qo'llab-quvvatlanmasa u kelajakda jamiyatga ijobiy hissa qo'sha olmaydi.

Huquqiy choralar. O'zbekiston miliy qonunchiligi asosida. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlikka qarshi kurashda eng muhim yo'nalishlardan biri huquqiy himoya tizimini kuchaytirishdir. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizmi so'ngi yillarda bolalar huquqlarini himoya qilish zo'ravonlikning oldini olish va jinoyatchilarni jazolash bo'yicha qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Huquqiy choralar uch yo'nalishda olib boriladi:

- Jinoyat sodir etilganidan keyin javobgarlikni ta'minlash
- Voyaga yetmaganlarni zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini kuchaytirish
- Profilaktika va ogohlantirish mexanizmlarini joriy etish.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi jiniy zo'ravonlikka nisbatan qat'iy javobgarlikni belgilab qo'ygan. Ayniqsa jabrlanuvchi voyaga yetmagan bo'lgan holatlar o'gir yoki o'ta og'ir jinoyatlar turkumiga kiradi.

118-modda. Nomusga tegish. Nomusga tegish ya'ni zo'rlik ishlatib qo'rqitib yoki jabrlanuvchinig o'jizligidan foydalanib jinsiy aloqa qilish 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

119-modda. Jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish. Zo'rlik ishlatib qo'rqitib yoki jabrlanuvchining o'jizligidan foydalanib jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

121-modda. Shaxsni jinsiy aloqa qilishga majbur etish. Xizmat moddiy yoki boshqa jihatdan aybdorga qaram bo'lgan shaxsni jinsiy aloqa qilishga yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga majbur qilish 300 soatdan 480 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki 2 yildan 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 1 yildan 3 yilgacha ozodlikni cheklash yoki 1 yildan 3 yilgacha ozodlikni mahrum qilish bilan jazolanadi.

128-modda. O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish. O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsoy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish 3 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 3 yildan 5 yilgacha ozodlikni mahrum qilish bilan jazolanadi. O'sha harakat moddiy qimmatliklar berish yoki mukiy yoxud boshqacha tarzda manfaatdor etish orqali sodir etilgan bo'lsa 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bola huquqlari to'g'risidagi qonun va himoya tizimi. O'zbekiston Respublikasining Bola huquqlari to'g'risidagi qonun bolalarni barcha turdagi zo'ravonlik ekspluatatsiya suiiste'mol va kamsitishlardan himoya qilishni davlat zimmasiga yuklaydi. Ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun. Mazkur hujjatda jinsiy zo'ravonlik taryiq jinsiy kamsitish va ekspluatatsiya holatlariga yo'l qo'ymasligi qat'iy belgilangan. Bu qonun faqat ayollarni emas balki voyaga yetmagan qizlarni ham jinsiy tazyiqdan himoya qilishni maqsad qiladi. Shuningdek unda ish joyida ta'lim muassasalarida oilada yoki ijtimoiy muhitda jinsiy kamsitish yoki tazyiqqa yo'l qo'ygan shaxslar javobgarlikka tortilishi belgilangan. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonun. Bu qonun jinsiy zo'ravonlikka uchragan ayollar va qizlar uchun himoya orderi reabilitatsiya markazi psixologik yordam tizimini joriy etgan. Agar voyaga yetmagan qiz zo'ravonlikka uchragan bo'lsa unda:

- Vaqtinchalik xavfsiz joy ajratiladi
- Huquqiy yordam bepul ko'rsatiladi
- Ruhiy reabilitatsiya dasturi qo'llaniladi.

Mazkur qonun jim turgan qurbonlarni himoya qilishga ularni so'zlashga undashga qaratilgan.

O'zbekiston BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasi va "Bola huquqlarining amalga oshirilishi to'g'risidagi fakultativ protokol" ga a'zo bo'lib xalqaro darajada bolalar himoyasini o'z zimmasiga olgan. Amaliy chora-tadbirlar va islohotlar. So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati va Adliya vazirligi tomonidan bir qator institutsional isloholat amalga oshirildi:

- Bolalarni himoya qilish milliy tizimi shakllantirildi (2024-yil Prezident qarori asosida)
- Ichki ishlar organlarida voyaga yetmaganlar ishlar bo'yicha inspektorlar faoliyati kuchaytirildi.
- 102 va 1146 ishonch telefonlari shuningdek psixologik yordam markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi.
- Sud-tergov jarayonlarida voyaga yetmagan jabrlanuvchilarni himoya qilish bo'yicha alohida tartib joriy etildi.

(ya'ni bola so'roq paytida psixolog ishtirok etadi yuzma-yuz so'roq o'tkazilmaydi.

O'zbekiston milliy qonunchiligi voyaga yetmaganlarni jinsiy zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha mukammal huquqiy bazaga ega. Ammo eng muhim narsa bu qonunlarning amalda to'liq ishlashi. Har bir holatni yashirmaslik jabrlanuvchini ayblamaslik unga huquqiy va ruhiy yordam berish bu qonunlar samaradorligini ta'minlaydigan ijtimoiy vijdon masalasidir.

Yechim yo'llari va takliflar. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik bu nafaqat huquqiy balki ijtimoiy axloqiy psixologik va ma'naviy muammo. Uni bartaraf etish uchun faqat jazo choralari yetarli emas bu jarayon tizimli profilaktik va tarbiyaviy yondashuvni talab etadi. Quyida muammoni hal etishning asosiy yo'nalishlari va O'zbekiston qonunchiligiga kritishi mumkin bo'lgan yangiliklar keltirilgan. Huquqiy tizimni yanada kuchaytirish va qonunlarni takomillashtirish. O'zbekiston qonunchiligi jinsiy zo'ravonlik uchun qat'iy jazolarni belgilab qo'ygan bo'lsa-da profilaktika va erta ogohlantirish tizimi hali to'liq shakllanmagan. Shu sababli quyidagi huquqiy takliflar dolzarb hisoblanadi. Voyaga yetmaganlarni jinsiy zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida alohida qonun qabul qilish. Jinoyat kodeksiga qo'shimcha modda "Pedofilni majburiy tibbiy davolash" tartibini kiritish. Hozirda bunday norma to'liq joriy etilmagan. Jinsiy jinoyatchilarni psixologik-psixiatrik nazoratda saqlash va majburiy reabilitatsiyadan o'tkazish tizimini yo'lga qo'yish kerak. Bu yondashuv jazoda ko'ra takror jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinsiy jinoyatlar uchun umrbod nazorat mexanizmini joriy etish. Jazo muddatini o'tab chiqqan shaxslar:

- Bolalar bilan ishlaydigan joylarda
(maktab bog'cha o'quv markazi) ishlash huquqiga ega bo'lmasin
- Maxsus ro'yxatga olinib
nazoratda tursin.

Bu tizim AQSH va Buyuk Britaniya qonunchiligida "Sex Offender Registry" nomi bilan mavjud va natijadordir. Ta'lim va tarbiya tizimida profilaktika ishlarini kuchaytirish. Jinsiy zo'ravonlikning ildizi ko'pincha ma'naviy-axloqiy yetishmovchilik va bolalarning huquqiy ongi pastligida yotadi. Shu sababli maktablarda "Bolalar xavfsizligi va huquqlari madaniyati" fani joriy etish. Bu darslarda bolalarga quyidagilar o'rgatiladi:

- O'z shaxsiy chegarasini bilish va
himoya qilish
- Tazyiq yoki zo'ravonlik
holatlarini tanib olish
- Kimga va qayerga murojaat
qilishni bilish.

Bunday o'quv kurslari BMT va UNICEF tavsiyalarida alohida ta'kidlanadi. Ota-onalar uchun majburiy "Psixologik-pedagogik savodxonlik" treninglarini joriy

etish. Ko'plab jinoyatlar ota-onaning befarqligi yoki bolaning ruhiy holatini anglamasligi natijasida sodir bo'ladi. Axborot makonida bolalar xavfsizligini ta'minlash. Raqamli asrda jinsiy tazyiq va ekspluatatsiyaning bir qismi internet orqali amalga oshmoqda. Shu bois bola uchun xavfsiz internet dasturini joriy etish. Bu dastur quyidagilarmi o'z ichiga oldi:

- Internet-provayderlar bolalar uchun filtrlash tizimini joriy etsin
 - Ijtimoiy tarmoqlarda bolalarni yollashga uringan shaxslarni aniqlash uchun maxsus kiber- patrul xizmati tashkil etilsin.
 - Voyaga yetmaganlar bilan bog'liq kontentni nazorat qiluvchi "Axborot etikasi kengashi" tuzilsin
- Reabilitatsiya va psixologik yordam tizimini kengaytirish. Ko'plab jabrlanuvchilar jazo emas balki ruhiy tiklanishga muhtoj. Shu bois har bir viloyatda "Voyaga yetmaganlar uchun reabilitatsiya markazlari" tashkil etish. Bu markazlarda:

- Malakali psixologlar yuristlar va ijtimoiy xodimlar faoliyati yuritadi.
 - Jabrlangan bolalarga bepul tibbiy ruhiy va huquqiy yordam ko'rsatiladi.
 - Davlat tomonidan moliyalashtiriladi.
- Bolalar himoyachisi instituti (ombudsman) vakolatlarini kengaytirish. Bolalar ombudsmani:
- Jinsiy zo'ravonlik holatlari yuzasidan mustaqil surishtiruv o'tkazish
 - Davlat organlariga majburiy ta'sir chorasi qo'llash huquqiga ega bo'lishi kerak.

Bu institut Yevropa davlatlarida samarai ishlamoqda. Ilmiy-tadqiqot va monitoring tizimini yaratish. Jinsiy zo'ravonlik ko'lamini sabablari va oqibatlarini aniqlash uchun doimiy ilmiy monitoring zarur. Shu maqsadda Adliya IIV Sog'liqni saqlash va Oliy ta'lim vazirlari hamkorligida "Bola xavfsizligi monitoring markazi" tashkil etilishi. Har yili "Bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik holatlari to'g'risida Milliy hisobot" e'lon qilinishi lozim Bu ochiqlik jamiyatni hushyor tutadi va qonunlarning real ishlashiga turtki beradi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlikni kamaytirish bu faqat jazolash emas insonparvar ongli tizimli kurash demakdir.

XULOSA.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik bu nafaqat shaxsning sha'ni va qadr-qimmati tajovuz balki butun jamiyat vijdoniga insoniylik tamoyillariga qarshi qaratilgan og'ir jinoyatdir. Ushbu jinoyatning ijtimoiy xavfliligi shundaki bu bolalarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga chuqur salbiy ta'sir ko'rsatadi kelajak avlodning sog'lom shakllanishiga xavf



tug'diradi. Jahon hamjamiyati bu muammoni inson huquqlarining eng jiddiy buzilishi sifatida baholaydi. Xususan BMT "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya" Yevropa kengashining "Bolalarni jinsiy ekspluatatsiya va suiiste'moldan himoya qilish to'g'risidagi Lanzarote konvensiyasi" kabi xalqaro hujjatlar barcha davlatlarga voyaga yetmaganlarni har qanday shakldagi zo'ravonlikdan himoya qilish majburiyatini yuklaydi. Ushbu xalqaro normalar milliy qonunchilik tizimlarida majburiy asos sifatida qo'llanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu yo'nalishda izchil huquqiy siyosat yuritmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasid har bir insoning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizligi ekani mustahkamlab qo'yilgan. So'nggi yillarda davlatimiz tomonidan "Bolalarni zo'ravonlik va ekspluatatsiyadan himoya qilish to'g'risida"gi qonun hamda Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar orqali voyaga yetmagan jabrlanuvchilarning huquqiy himoyasi yanada mustahkamlandi. Endilikda ularning psixologik reabilitatsiya sud-tergov jarayonlarida maxsus himoya sharoitlari va advokat yordami ta'minlanmoqda. Shu bilan birga muammoni faqat jazo orqali emas balki profilaktika ma'rifat va ijtimoiy mas'uliyati oshirish orqali hal etish zarur. Ta'lim muassasalari oilalar diniy va jamoat tashkilotlari bolalarda jinsiy tarbiya madaniyatini o'z huquqlarini bilish va himoya qila olish ko'nikmalarini shakllantirishda faol bo'lishi kerak. Xulosa qilib aytganda voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlikka qarshi kurash bu faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi emas balki butun jamiyatning axloqiy burchidir. Inson qadri ustuvor bo'lgan demokratik davlatda bunday jinoyatga murosasiz munosabat adolatli xavfsiz va sog'lom jamiyat qurishning eng muhim kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi <https://lex.uz/docs/-111453>
2. O'zbekiston Respublikasining Bola huquqlari to'g'risidagi qonun
3. Ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun <https://lex.uz/docs/-4494849>
4. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonun
5. BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasi
6. Bolalarni himoya qilish milliy tizimi shakllantirildi
7. "Sex Offender Registry" https://en.wikipedia.org/wiki/Sex_offender_registry
8. Bolalar himoyachisi instituti (ombudsman) <https://lex.uz/uz/docs/-6823379>
9. Yevropa kengashining "Bolalarni jinsiy ekspluatatsiya va suiiste'moldan himoya qilish to'g'risidagi Lanzarote konvensiyasi" https://en.wikipedia.org/wiki/Lanzarote_Convention
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
11. "Bolalarni zo'ravonlik va ekspluatatsiyadan himoya qilish to'g'risida"gi qonun <https://lex.uz/ru/docs/-7219502>
12. Jinoyat-protsessual kodeksi <https://lex.uz/docs/-111460>

